

YOZUVDA AKS ETGAN INSONIY XISLATLAR

Xasanova Mexriniso Axmatovna

Qorako'l Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi psixolog'i

XI asr – shiddat bilan globallashayotgan dunyo, jadal axborotlashayotgan jamiyat va hayotimizdan chuqur o'rinni olayotgan axborot – komunikasiya texnologiyalari davrida nimaiki yozadigan bo'lsak, qo'l telefon, noutbuk va kompyuterlarning qulay imkoniyatlardan unumli foydalanishga o'rganib qoldik. Endilikda hatto dasxat so`zini esdan chiqaryapmiz. Har bir inson o`ziga xos noyob dasxat egasidir. Har bir dasxat zamirida uni bitgan inson mansub millat va xalqning yozuv madaniyati an`analari mujassamdir.

Aristotel insonning dasxati va dunyoqarashi o`rtasida bog`liqlik borligini qayd etgan. Necha ming yillik yozuv tarixi taraqqiyoti davomida dasxat orqali ham insonning fe`lini bilishga harakat qilingan. Dasxatlar o`z sohiblarining mijozи, tabiatи, bilimi va dunyoqarashi, didi va ta`bidan darakchdir. Hech kim yoza olish qobiliyati bilan tug`ilmaydi. Bu mahorat keyinroq orttiriladi. Vaqt kelib bu jarayon haqiqiy ko`nikmaga aylanadi. Ost ong (shakllanmagan ong) xat – savod jarayonini idora qiladi. Zamonaviy klinik tibbiyot ayrim kasalliklar paytida xusnixatning o`zgarishi to`g`risida ancha manba to`plagan. Harflardagi har bir chiziq yozayotgan kishining shaxsiyati izini o`zida mujassam qiladi.

Yozuvning xulq – atvor bilan bog`liqligi qadimgi davrlardayoq ma'lum bo`lgan. Shuning uchun ham Rim imperatori Neyronning maktubida shunday so`zlar bor: "Men bu odamdan qo`rqaman, chunki uning yozuvi xoinlik tabiatidan dalolat beradi." Xitoy faylasufi Konfusiy ogohlantiradi: "Shamolda chayqalayotgan qamishni eslatuvchi yozuvga ega odandan qo`rqing". Yozuvga bo`lgan qiziqishni juda ko`plab muallaflar ijodida kuzatish mumkin.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda grafologiyaga katta ahamiyat berilmoqda. Grafologiya- shaxs va yozuv o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik qonuniyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Ko`plab korxona va firmalarda grafolog – mutaxasis shtatlari mavjud bo`lib, ular ishga kiruvchilarining yozuvlariga qarab tavsifnomalar beradilar. Bundan tashqari grafologiya yuridik sohada, tibbiyotda, sport va pedagogikada qo`llanilib kelmoqda. Masalan, AQSHning baholash markazlarida 238 alomat bo`yicha davogarlar so`rovnomasining grafologik tahlili amalga oshiriladi. Uning yordamida: matnning joylashioshi, harflar yo`nalishi va qiyaligi, ularning kattaligi va shakliu, yozuv maromi va boshalar e`tiborga olinadi. AQSHda turli lavozimlarga da`vogarlar sifatlarini tahlil qilishga ixtisoslashgan grafologik



byurolar ko`p tarqalgan. Grafologik tahlil kompaniya va davlat muassasalari uchun juda qo`l kelmaqda. U ancha soda, arzon, muhimi an`anaviy ruhiy sinovlarga qaraganda ancha ishonchla usul hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida yozuvni aniqlash kosmik tibbiyotga keng tadbiq qilinmoqda. Fazogirning kosmik parvozlar paytidagi yozuvlari tahlili mutaxasislar uchun qiziqarlidir. Fazogirlarning markaziy asab tizimi holati va qobillik darajasini baholash uchun bunday tahlil qo`llaniladi.

Kriminalistikada yozuvni aniqlash nafaqat shaxsiyatni aniqlash uchun qo`llaniladi. Balki yoizuvchining asab zo`riqishi, ruhiy tushkunlik, jarohat olish, spirtli ichimliklar ichib, mast bo`lish holatlarini aniqlash uchun ham qo`llaniladi.

Yozuvga qarab insonning fe`l – atvorini aniqlash usuli endi sir emas. Yazuvsda ham odamning barcha harakatlari (yurishi, imo – ishorasi, yuz ifodasi) dagi kabi uning fe`l – atvori aks etadi. Yozuvini tahlil qila turib, shaxsning uziga xos xusisiyatlarini aniqlash mumkin.

Husnixatimiz biz haqimizda nima deydi?

Husnixatga qarab inson xarakterini bilish:
So`zlar orasida bo`shtakalar ko`p bo`lsa, yozuv sohibi yoki sohibasi o`zini yolg`iz his qilyapti.
Tartibsiz yozuvlar – turmushini nazorat qila olmaslik.
Katta harflar – tartibsizlik.
Juda kichik harf (“chumoli yozuv”) – o`ziga ishonchi past inson, ehtiyyotkor, realist, lekin texnika bilan tez til topishadi.
Uzun harflar – estetika, mardlik, qobiliyat va adabiyotga mehr.
Semiz harflar – ochiqlik ramzi.
Raqamlarga o`xshash harflar – o`qimishli, sabrli va biroz sovuqqon.
Varoqqa siyoh ko`p tomizilgan, yozuvida surkalgan joylari ko`p bo`lsa – noziktabiat, shuningdek, kutilmagan, ajoyib ishlarni bajarishga rag`bati kuchli.
Harfdagi belgilarni tashlab yozish – yolg`iz qolganda o`ziga xizmat ko`rsatolmaydi, o`ziga nisbatan bee’tibor.
Ilgaklarni gajak bilan yozish – qarorni oson va tez qabul qiladilar. Nazoratni yaxshi ko’radilar, qonunlarga bajonidil amal qiladilar. Shuningdek, optimist bo’ladilar.
Yirik-yirik yozadiganlar – o’ta iltifotli, saxiy, ko’ngilchan va san’at shaydolari.
Ingichka yozuvlar – harakatchan, lekin birovning dardini tushunmaydigan kishilar.
Harf oralarini katta-katta ochib yozish – mablag’ni besamar sovurishdan darak.
Ilgakni uzun tushirish – zavq-shavqqa to’la insonlar.
Tepaga chiqqan uzun chiziqlar – hissiyotga boy kishilar.
Ilmoq uchlari o’tkir – haqqoniylilik va ochiqlik.



Xattotlar xatiga o'xshash – fantaziya kuchliligi, yuksak qobiliyat egasi, shu bilan birga qo'rqoq va beqaror. Bezaklarsiz, oddiy, so'zlar orasida bo'sh kataklar xammasida bir xil tashlangan bo'lsa, harflarning shakli ham deyarli bir xil –aql ustuvorligi. Harflar bir-biri bilan bog'langan, qo'lcha hosil qilgan – o'z fikrini hurmat qilish. Yengil, ortiqcha kuch va harakatsiz – xarakteri ham yengil, hayotdan rozi, birovga qulqoq tutuvchi va ergashuvchi, mehribon. Kerakmas paytda, masalan so'z o'rtasidagi harflarni ham kattada yozish, so'zlar orasida ko'p joy tashlash – quvnoq, hazillarni yoqtiradigan, sevgi va orzuga moyil, shuningdek matematik qobiliyatga ega. O'ng tomonga og'ishtirib yozish – faol va orzularga boy, o'ng tomonga juda ham ko'p egilgan, natijada oxirgi harflar deyarli ko'rinxmay qolgan, bir qarashda titrab yozilganga o'xshasa – ta'sirchanlik. Titrab yozish – talabchan, go'zallikka mehri baland, dangal, ayni vaqtda qo'rqoq.

To'g'ri qilib yozadiganlar – xarakterida qo'rquv yo'q. Yozuv aniq, o'qishga oson, harflar bir-biriga bog'langan bo'lsa, bu mehnatkash, ishlarni chin dildan qilish, ba'zida pessimist. Bunday odamlar gohida ochiq gapirib, qo'pollik ham qilib qo'yadilar. Chap tomonga og'ishtirib yozish – erkin emaslik, doimiy xarakteri yo'q, aniq qadamni qo'ya olmaydi. Kichik varoqqa ko'p narsa sig'dirish (tejamkor usul) – buning iqtisodga dahli yo'q. Aynan shunday yozadiganlarga o'zboshimchalik yot bo'ladi. Tez va chiroyg'a kam e'tibor berib yozish – bu odamning ishi yozishni ko'p taqozo qiladi va u ko'p vaqtarda biror joydan ko'chirib emas, o'zi o'ylab, ichidan to'qib yozadi.

Tashqi ko'rinishni yozuvdan aniqlash: Baland bo'yli insonlar. Deyarli hech vaqt bo'g'in ko'chirib o'tkazmaslikka harakat qiladi, yozuvida chalkashlik yo'q, chiziqlar tortilmagan toza oq qog'ozga ham bir tekisda, chiroyli yoza oladi.

Past bo'yli insonlar. So'zni to'liq yozishga joy yetsa ham bo'g'in ko'chirish odati bor, harf va so'zlarni cho'zibroq yozishadi, ilmoqlarni uzun-uzun qo'yishadi. O'rta bo'yli insonlar. So'zlarni qisqartirib yozish odati bor, qator oxiridagi so'z yo harflar pastgacha tushib ketadi.

Oq-sariqdan kelgan, malla sochli insonlarning yozuvi aniq, did bilan yozilgan, harf va so'zlari mayda, cho'zilmagan bo'ladi. Qator chizilmagan varoqqa ham bir tekisda chiroyli yoza oladi. Ularning ko'pchiliginining husnixati chiroyli.





Qora sochli insonlar ulardan farqli ravishda, qator chizilmagan qog'ozga bir tekisda yoza olishmaydi, ko'pincha husnixatlari tepaga qarab chiqib ketadi. Shunga qaramay, chiroyli yozishga urinishlar sezilib turadi. Ular bosh harflarni ajratib ko'rsatishni xohlashadi, ba'zan keraksiz joyda ham bosh harfni ishlatadi.

Davlat ishida ishlovchi kishilar harflar formasiga e'tiborsiz yozishadi.

Pala-partish yozuvlar esa ko'pincha ishchi, hunarmand va xizmatchilarga tegishli bo'ladi.

Faoliyati bevosita pul bilan bog'liq, masalan, sotuvchi, dorixona xizmatchisi, tadbirkorlar ko'p o'chirishadi, bo'yashadi. Umuman olganda, ularning husnixati kamdan-kam hollarda chiroyli bo'ladi.

Qator chizilmagan oppoq qog'ozga yozganda pastga tushib ketish shoirlarga xos. Grafologiyada kuzatilgan yana bir qiziq holat: eng chiroyli, benuqson va bexato husnixat egalari ko'p hollarda tikuvchilarga xos bo'ladi. Inson murakkab bo`lganidek uning ruhiyatini ham aytib berish ham mushkul. Balki shuning uchun ham grafologiyaning ayrim ma'lumotlari noto`g`ri chiqar. Ammo uni o`rganish to`xtab qolmagan bo`lib, turlicha kitoblar nashr qilinib, o`ziga xos maktablari faoliyat yuritayapti. Internet orqali ham grafologiyadan on – line ma`ruza yo`lga qo`yilgan. Nima bo`lganda ham o`zlikni anglash hamma qiziqishi kerak bo`lgan narsa bo`lib qolaveradi. Balki siz ham oddiygina qaydlarga befarq qaramassiz...

ADABIYOTLAR:

1. N.Yusupova."Fe'l – atvor va yozuv" Toshkent. "Yangi asr avlodii" 2015 yil
- 2.Badalyev A.A. " Bospriyatiye I ponimanie cheloveka - chelovekom" M, 1982.
- Nadjimov O. " Kak uznat xarakter cheloveka po ego podpisi ili prakticheskaya grafologiya" T. 1998.

